



## ONG VA ONGSIZLIK JARAYONLARINING PSIXOLOGIK MOHIYATI HAMDA BOG'LIQLIGI

*Muhtorova Omatoy*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ong va ongsizlik tushunchalarining mohiyati, ularning inson tafakkuri va xatti-harakatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Ong- insonning atrof-muhitni anglash, fikrlash va maqsadli faoliyat yuritish qobiliyatidir. U bilim olish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ongsizlik esa inson ongidan tashqarida bo'lib, instinktlar, sezgilar va avtomatik xatti-harakatlar bilan bog'liq holatni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolada Zigmund Freyd va Karl Gustav Yung kabi mutaxassislarining ong va ongsizlik haqidagi qarashlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ongsizlikning inson hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi, u orzu va his-tuyg'ular bilan qanday bog'liqligi muhokama qilinadi. Maqola psixologiya, falsafa va nevrologiya nuqtayi nazardan ong va ongsizlikning o'zaro munosabatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ong va ongsizlik inson tafakkurining ajralmas qismi bo'lib, ular birgalikda shaxsiy rivojlanish va qaror qabul qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** ong, ongsizlik, psixologiya, tafakkur, inson, mutaxassis, falsafa, nevrologiya.

### KIRISH

Ong— psixik faoliyatning oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina



dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad. bo'lsada, ular hamon o'zining Jlo'plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.

Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir. Ongsizlik (psixologiyada) — ong ishtirokisiz sodir bo'ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ongsizlik ko'pincha, badan harakatida, xotirasida, xayolida namoyon bo'ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo'zg'atgichlar vujudga keltiradigan javob ta'sirotlarida, asli ongi paydo bo'lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro'y beradi. Mas odam o'z o'yxayollariga cho'mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo'ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyusinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm chog'ida yuz beradigan psixik faoliyat ham ongsizlik holatiga kiradi. Freyd ongsizlikni sof irratsionalistik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan ongsizlik o'rtasida murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xatti-harakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Ongsizlikni odam anglashga va payqashga jur'at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir.

Psixikaning quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik - bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alahlash, gallyutsinatsiya kabilar kiradi. Onglilikdan farqli o'laroq, ongsizlikda amalga oshirilayotgan harakatlarni maqsadli nazorat qilish, shuningdek, natijalarini baholash imkoniyati mavjud emas.



Ongning mohiyatini izohlashda 2-yoʻnalish-bu ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bogʻlab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yoʻnalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo boʻldi. Vulgar materializm deb nom olgan oqim namoyandalarining fikricha, xuddi jigar saf-roni ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqarar emish. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, moddiy hodisa degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni koʻrish mumkin, ammo ongni koʻrib ham, ushlab ham boʻlmaydi. Aslida ong tarixi insonning inson boʻlib shakllana boshlashi tarixi bilan bogʻliqdir. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topgan. Oʻz-oʻzini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir.

**Psixoanaliz (psixo... va analiz)** — psixoterapiya metodi va Zigmund Freyd tomonidan rivojlantirilgan psixologik taʼlimot. Ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qoʻyadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo boʻlgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi degan gʻoyani ilgari surib, odam xulqidagi ijtimoiylik, onglilikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, seksual) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va hokazolar)ning asosiy manbai sifatida qaraladi. Psixoanaliz nazariyasiga koʻra, 3 xil psixik instansiyalar hukm surishi mumkin: gʻayrihuuriy "U" (id) — mayl doirasi; turli himoya vositalari bilan "U"ning impulyelarini cheklovchi shuuriy "Men" (Ego); "Oʻta-Men" (Super-Ego) — ijtimoiy taqiqdar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib-qoidalar. Freydning fikricha, "Men" reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Inson oʻzining qadimgi ajdodlaridan irsiy yoʻl bilan oʻtgan instinktiv mayllarning namoyon boʻlishi tufayli faoldir.



Instinktiv mayllar dastavval jinsiy instinkt va o‘zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko‘p jihatdan cheklab qo‘yadi, uning instinktlari va mayllari "senzura"dan o‘tkaziladi. Buning natijasida o‘zining aksariyat instinktlari va mayllarini to‘xtatish, taqiqlashga majbur bo‘ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga tegadigan ruhiy holat sifatida ongli hayotidan siqib chiqariladi, lekin yo‘qolib ketmaydi, faqat ongsizlik sohasiga o‘tkazib yuboriladi, xolos.

**Psixoanaliz ta’limotining vazifalaridan biri** — ongsizlik sohasidagi "kompleks"larni aniklash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Ushbu ta’limot namoyandalari shaxsning ichki ixtiloflarini ochib berish uchun "Edip kompleksi"ni yaratdilar. Ularning mulohazasicha, instinktiv mayllar o‘z quvvati va faolligini saqlagan holda insoniyat madaniyati va shaxs faoliyati mahsulining har xil shakllariga kirib ("sublimatsiyalashib"), ongsizlik holatidan turib inson xulq-atvorini boshqarishda ishtirok qilaveradi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o‘rtasidagi qaramaqarshi munosabatni mutlaqlashtirish uchraydi, buning natijasida ularning o‘zaro bir-birini to‘ldirish imkoniyati rad qilinadi.

**Ongsizlik (psixologiyada)** — ong ishtirokisiz sodir bo‘ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ongsizlik ko‘pincha, badan harakatida, xotirasida, xayolida namoyon bo‘ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo‘zg‘atgichlar vujudga keltiradigan javob ta’sirotlarida, asli ongi paydo bo‘lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro‘y beradi. Mas odam o‘z o‘yxayollariga cho‘mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo‘ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyusinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm chog‘ida yuz beradigan psixik faoliyat ham ongsizlik holatiga kiradi. Freyd ongsizlikni sof irratsionalistik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan ongsizlik o‘rtasida



murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xatti-harakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Ongsizlikni odam anglashga va payqashga jur'at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir.

Zigmund Freyd ta'limotining tarafdorlari ham, tanqidchilari ham ko'p bo'lgan. Uning eng yaqin safdoshlari va shogirdlari bo'lmish Alfred Adler va Karl Gustav Yung uning ta'limotini avvaliga qo'llab-quvvatlashdi, keyinchalik undan qisman voz kechishdi. Ular o'zlarining ta'limotini yaratishdi. A. Adler individual psixologiya, K.G. Yung esa analitik psixologiya ta'limotini. Bu olimlar Z. Freydni tanqid qilishsa-da, aslida ular tanlagan yo'nalish psixoanalizning davomi edi.

A.Adler fanga «etishmovchilik hissi» degan tushunchani kiritdi. Uning fikricha, bu tuyg'u tabiiy va tug'ma bo'lib, har birimiz uchun xos va shaxs rivojlanishida katta ahamiyatga ega. A.Adler fikriga ko'ra, har bir inson umri mobaynida o'zidagi ushbu etishmovchilikdan qutulish uchun boshqalar ustidan hukmronlik qilishga, ularning faolligini bostirishga intilib yashaydi. Buning uchun u o'zidagi barcha imkoniyatlarni ishga soladi va jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi. A. Adler bu jarayonni kompensatsiya yoki superkompensatsiya deb atadi. Superkompensatsiya - bu etishmovchilik hissiga bo'lgan tug'ma reaksiyalarning ijtimoiy bir ko'rinishidir. Adlarning fikricha, ana shu tug'ma instinktlar odamni atrofdagilarga tajovuzkor qilib qo'yadi. Demak, odamda nevroz rivojlanishining oldini olish uchun undagi etishmovchilik hissini bartaraf etish zarur. Vaholanki, A.Adler ham o'z ta'limotida inson ruhiyati rivojlanishida instinktiv reaksiyalarga urg'u bergan. K.G. Yung ta'limoti biroz boshqacha edi. U «jamoa ongsizligi» degan tushunchani taklif etdi. Yung individual ongsizlik va jamoa ongsizligi orasida aniq bir chegara chizig'ini o'tkazdi. Uning fikricha, jamoa ongsizligi individual ongsizlikdan farqli o'laroq, avloddan avlodga uzatiladi va «Men» jamoa ongsizligi ta'siri ostida rivojlanadi. Yungning fikricha, individual ongsizlik odamning shaxsiy tajribasida aks etadi. Bu tajribalar, albatta, qachonlardir ongda aks etgan, lekin



ongdan siqib chiqarilishi natijasida unut bo‘lib ketgan. Jamoa ongsizligi — bu umuminsoniy tajribalar bo‘lib, har bir millat va elatlar uchun xos, u o‘tmishimizning yashiringan xotira izlaridir.

**Ong-** insonning atrof-muhitni idrok etish, fikrlash, ongli qarorlar qabul qilish va o‘z hayotini boshqarish qobiliyatidir. U tafakkur, xotira, tasavvur va tahlil qilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

**XULOSA.** Ongsizlik esa insonning ong nazorat qilmaydigan psixologik holatlari va instinktiv harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bu tushlar, reflekslar avtomatik harakatlar va chuqur psixologik jarayonlar shaklida namoyon bo‘ladi. Ongsizlik ko‘pincha insonning ichki xotiralari, qo‘rquvlari va tug‘ma instinklariga bog‘liq bo‘ladi. Ong va ongsizlik bir-birini to‘ldirib, inson ruhiyatining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ong inson hayotini ongli ravishda boshqarishda asosiy rol o‘ynasa, ongsizlik esa ba‘zan yashirin ravishda inson qarorlariga va xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli, inson o‘z ongsiz his-tuyg‘ulari va instinktlarini tushunib, ularni ongli ravishda boshqarishga harakat qilishi muhimdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. S.G.YAroshevskiy. A.N.Jdan. Bg‘Yu.B. Gippereyter «Xrestomatiya» po istorii psixologii» M.Izd. «MGU»-2000.
2. A.N.Jdan. «Istoriya psixologii» M.Nauka. -1990 .
3. A.V.Petrovskiy. «Umumiy psixologiya» T.Uzb. 2005 yil.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – M.: Pedagogika, 1989.
5. [http://rej.a.tdpu.uz/shaxsiyrej a/content/120/html/102983/4\\_mavzu.htm](http://rej.a.tdpu.uz/shaxsiyrej a/content/120/html/102983/4_mavzu.htm)
6. Nurullo o‘g‘li, A. A. (2023). Sharq mutafakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlari. Тараққиёт, 13. 2023.
7. Vaxabova O‘.T (2024). Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta’sirining psixologik jihatlarini.



Современное образование (Узбекистан), (12(145)),46-51.

8. О'gilxon Т, V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.